

**TIBBIYOT YO‘NALISHI TALABALARNING AMALIY-JARAYONLI
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA ASOSLANGAN TA’LIMNING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Ubaydullayeva Vazira Patchaxanovna

Asistent, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (97-130-82-42, 90-9458958)

Bazarbayev Muratali Irisaliyevich

f.-m.f.n. dotsent, kafedra mudir, Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotasiya

ishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartida tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishning uchta asosiy kompetensiyasi talqin qilingan. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi ko‘p jihatdan fizika yutuqlarini joriy etilishi bilan bog‘liqdir, chunki kasalliklarni tashxislash, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari fizik qonuniyatlarga asoslanadi. Bu jarayoni rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilishi ya’ni talabalarning mantiqiy fikrlay olish va bilimlarini amaliyotga joriy qila olish qobiliyatini rivojlantirish bilan boyitilishi lozimdir. Shu bilan bir qatorda mazkur ishda «Kompetensiya» va «Kompetentlik» tushunchalari bo‘yicha turli olimlar izohlari batafsil yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, talaba, oliy ta’lim, fizifa, fan, davlat ta’lim standartlari.

**ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РАЗВИТИИ
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО НАПРАВЛЕНИЕ
МЕДИЦИНЫ**

Аннотация:

В государственном образовательном стандарте, основанном на компетентностном подходе, трактуются три основные компетенции преподавания физики в высших учебных заведениях в области медицины. Развитие современной медицины во многом связано с внедрением достижений физики, поскольку современные методы диагностики, лечения и профилактики заболеваний основаны на физических законах. Развитие этого процесса должно осуществляться на основе компетентностного подхода, то есть обогащаться развитием умения учащихся логически мыслить и применять свои знания на практике. Кроме того, в данной работе подробно изложены комментарии различных ученых по поводу понятий «Компетентность» и «Компетентность».

Ключевые слова: компетентность, компетентность, студент, высшее образование, физика, наука, государственные образовательные стандарты.

SPECIFIC FEATURES OF EDUCATION BASED ON THE DEVELOPMENT OF PRACTICAL COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS

Abstract:

In the state educational standard based on the competency approach, the three main competencies of teaching physics in higher education institutions in the field of medicine are interpreted. The development of modern medicine is largely related to the introduction of the achievements of physics, because modern methods of diagnosis, treatment and prevention of diseases are based on physical laws. The development of this process should be carried out on the basis of a competency approach, that is, it should be enriched with the development of students' ability to think logically and put their knowledge into practice. In addition, the comments of various scientists on the concepts of "Competence" and "Competence" are detailed in this work.

Keywords: competence, competence, student, higher education, physics, science, state education standards.

Kirish:

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan talabalarning zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hamda ularning turli darajadagi kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi. Chunki, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash vazifalari avvalo ta'lim tizimida amalga oshiriladi. Bu o'z o'rnida ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi respublikamizning kelajakdagi intellektual imkoniyatlarini va rivojlanishini belgilab beruvchi talabalarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1-2]. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi ko'p jihatdan aniq fanlar, xususan, fizika yutuqlarini joriy etish bilan bog'liq. Buning sababi shundaki, kasalliklarni tashxislash, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari fizik qonuniyatlarga asoslanadi.

Xalqaro pedagogik amaliyotda talabalarda turli kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish ham nazariy ham amaliy jihatdan ilmiy asoslash muhim hisoblanadi. Bu davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanish darajasi bilan talabalarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlari sub'ektlarining shaxsiy xislatlari va kasbiy

qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi va ilmiy-metodik ta'minot o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish bilan bog'liqdir [2-11]. Kompetensiyali yondashuvga asoslangan ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u kishini hayotga, jumladan mehnatga (kasbga) tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan tizimlashgan, muddatli, rasmiy, tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni berish orqali uni muayyan mahorat, qobiliyat yoki layoqat darjasiga yetkazish vositasidir. Shuning uchun ham barqaror rivojlanish uchun ta'lim aynan tizimlashgan ta'lim bosqichlarida kishini muayyan bir kompetentlik darajasiga yetkazish vositasi deyish mumkin. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda kollej, bakalavr, magistr, fan doktorining diplomi yoki uning kasbiy klassifikatordagi shifriga qarab emas, balki kompetentlik darajasiga qarab ishga oladi [3-133].

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvga alohida e'tiborni qaratish bugungi kunda dolzarb bo'lib, u fizika fani talabalarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda, yangi axborotlarni talabalarga tushunarli holda yetkazishlarida, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishlarida muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, OTMLar ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fizika fanidan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, talabalarning elektron manbalar bilan ishlash faolligini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni tezkor izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ta'limda kompetensiyali yondashuv, bu real dunyo sharoitida amaliy masalalarni qanday yechish kerak degan savolga javobdir. Mazkur yondashuv bilimlar ahamiyatini inkor qilmaydi, balki u egallangan bilimlardan foydalanish qobiliyatiga e'tibor qaratishga urg'u beradi. O'quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish ta'lim mazmunini o'zgartirishda, o'quv jarayonini amalga oshirishda, pedagogning amaliy ishlarida jiddiy o'zgarishlarni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartida tibbiyot yo'nalishidagi OTMLarida fizika fanini o'qitishning asosiy maqsadi: talabalarning mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, shuningdek, tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularning olgan bilimlarini amaliyotga joriy qila olish qobiliyatini rivojlantirish kabi talablar bilan boyitilishi lozimligidir.

Talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar asosan dars paytida shakllanganligi kabi kompetensiyalar ham dars jarayonida shakllantiriladi. Shu bois o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari asosida fizika fani o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyalariga qo'yilgan talablar muhim hisoblanadi. An'anaviy dars didaktik maqsadlariga ko'ra: talabani mavzuga olib kirish, yangi mavzuni o'rganish va mustahkamlash, bilim va ko'nikmalarni tekshirish va korrektsiyalash kabi dars turlaridan iborat bo'lib, unda fizika fani talabasi tomonidan markaziy boshqaruv amalga oshiriladi. Dars maqsadi uchta: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi qismlarga ajratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida fizika fani o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda, dastlab, talabani atrof-olamni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish, zaruriy axborotlarni izlash va uni real hayotda qo'llay olish uchun tayyorgarlik ekanini uqtirish lozim. Shu asosida talaba va uning faoliyati o'zgaradi. Bunday darslar: rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat, korrektsiyalash hamda analiz qilish kabi didaktik talablarga javob beradi.

Fizika fanini o'qitishda foydalanilgan keys-stadi, aqliy hujum, talabalar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, fanga doir xususiy kompetensiyalarni baholash maqsadida shakllantirilgan test topshiriqlari axborotni qayta ishlash, tahlil, sintez qilish, qiyoslash, abstraksiyalar orqali umumlashtirish, xulosalash, o'quv muammosining yechimini topish natijasida yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va OTMLarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri bu, fizika fani asosida talabalarning mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, fizika faniga oid turli darajadagi kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ularning fizik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini rivojlantirish kabi talablar bilan boyitildi. Fizika faniga oid 3 ta kompetensiya belgilab olindi, xususan, «Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi» bo'yicha talabalardan:

- fizik jarayon va hodisalarni kuzata olish, ularning mohiyati haqidagi tushunchalarni bilish va bayon qila olish, fizika bo'limlariga oid tushunchalar, terminlar, kattaliklar va ularning birliklari, qonuniyatlar, bog'lanish formulalarini bilish va ulardan masalalar yechishda foydalana olish talab etiladi;

- kuzatish natijalarini umumlashtirish va bayon qilishda tegishli fizik kattaliklardan foydalana olish hamda ularning o'zaro bog'liqligini matematik ifodalar ko'rinishida yozib, tushuntirib bera olish hamda fizika bo'limlariga oid tushunchalar, terminlar, fizik kattaliklar va ularning birliklari, qonuniyatlar, bog'lanish formulalarini bilish hamda ulardan amaliyot va kundalik turmushda foydalana olish zarur;

- fizik kattaliklarning xalqaro birliklar sistemasini, matematik ifodalarni mantiqiy bog'liq holda tushunish va tushuntira olish, fizika bo'limlariga doir kengaytirilgan asosiy tushunchalar, terminlar, kattaliklar va ularning birliklari, qonuniyatlar, bog'lanish formulalarini bilish va ularni amaliyotda qo'llay olishi talab etiladi.

Yevropa tajribasiga tayangan holda respublikamiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, rivojlantiriladigan turli darajadagi kompetensiyalarni tanlash va ularni pedagogik jarayonga singdirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Xuddi shuningdek, «Tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish» hamda «Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish» kompetensiyalari va ularning fizika o'quv fanini o'rganish bosqichlari bo'yicha talab darajalari belgilandi. Masalan, tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi talablari quyidagicha: amaliy topshiriqlarni bajaradi, tegishli fizik kattaliklarni o'lchaydi, natijalarini jadval ko'rinishda yozadi va xulosalar chiqara oladi; fizik tushuncha va kattaliklar birliklarini biladi va mazkur kattalikni boshqa kattaliklar bilan formulalar orqali bog'lay oladi.

Kompetentlik – bu, «bilim darajasi» sifatida «u yoki bu ob'ektning mohiyatan realligini tafakkur qila olish» masalasining nazariy jihatlarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Tadqiqot ishimiz g'oyasi uchun A.V.Xutorskiyning kompetensiya va kompetentlik ta'riflari, xususan, «...ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs – kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi [4-5].

Kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u inglizcha «competence», ya'ni «mahorat», «qobiliyat» muayyan bir sohada bilimli, tajribali degan ma'nolarni ham anglatadi [5-191]. Kompetensiya – shaxsni muayyan bir mahorat va qobiliyat darjasiga yoki tajribasiga egaligi bo'lib, uni shaxs hayot faoliyatining turli jabhalari, jumladan ta'lim uchun ham ishlatish mumkin. Mazkur tushuncha ta'limga ilk bor, YUNESKO tashkiloti qoshida tuzilgan E.For boshchiligidagi komissiyaning «o'qimoq» degan ma'ruzasi orqali kirib kelgan [6-12].

Kompetensiya - shaxsning ma'lum bir fan sohasida aniq harakatlarni samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyatidir. Shu bilan bir qatorda kompetensiya bu - bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, sabab omillari, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiy uyg'unligi bo'lib, qaysikim aniq tashkilot, aniq guruh, aniq ish joyida, aniq ishlab chiqarish jamoasi ijrochilarining samarali yechimlarini ta'minlab beradi [7-87].

Bugungi kunda xorijda «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bo'yicha turli izohlashlar mavjud. Jumladan, G.K.Selevko fikricha, «kompetensiya» – sub'ektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun ichki va tashqi resurslarni samarali tashkil etishga tayyorgarligidir [8-120]. Akademik A.V.Xutorskiy fikricha, «kompetensiya» – aniq bir sohada talabaning samarali produktiv faoliyati uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarligiga oldindan qo'yiladigan ijtimoiy talabdir. Turli kompetensiyalarni tahlil qilish ularning kreativ (ijodiy)

yo‘nalganligini ko‘rsatadi. Aslida kreativ kompetensiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin: «tajribadan foydani keltirib chiqa olish», «muammolarni yecha olish», «o‘tmish va hozirgi hodisalarning o‘zaro bog‘likligini ochib berish», «yangi yechimlarni topa olish» [4].

Xorijda shakllangan an‘anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi, uning kompetentlik, ta‘lim tizimi esa - bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi. Ularda faqatgina erishilishi lozim bo‘lgan natijani aks ettiruvchi, mutaxassis bilim va malakalarini mujassamlashtiruvchi malakaviy standartlar asosida ish yuritiladi. Shunga ko‘ra, ta‘lim jarayoniga talabalar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyali yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlarini yaratish va ta‘lim jarayoniga qo‘llash zaruriyati yuzaga keldi [9-533, 10-160].

Shu nuqtai nazardan ta‘lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, talabalarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida samarali ishlar olib borilmoqda. Rivojlangan davlatlarning ta‘lim standartlarini o‘rganish natijalaridan hamda mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimining davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan fanlar bo‘yicha uzluksiz ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihalari hamda kompetentlikni aniqlash bo‘yicha namunaviy ishlar asosida nazorat materiallari tayyorlandi. Bunda amaldagi davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturi asosida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash bilan birgalikda kompetentligini belgilaydigan materiallar ham kiritildi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. У.И. Иноятв. Замонавий электрон дидактик воситаларни яратиш, таълим жараёнида ахборот-коммуникацион технологияларни қўллаш долзарб ижтимоий-педагогик муаммо // Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. Тошкент, **2018, Б.3.**
2. С.Т. Турғунов. Педагогик жараёнларда ўқитувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш // Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. Тошкент, **2018. Б.12.**
3. М. Майбутов. Высшее образование в развитых странах // Ж. Образование за рубежом, № 2, 2003. С.132-144.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм- фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 06/20/6108/1483-сон)
5. Компетенция. Инглизча-ўзбекча, ўзбекча-инглизча луғат. Т.: «Педагог», 2007.

6. Д.С. Ермаков. Компетентный подход в образовании // Ж. Педагогика, №4. М., 2011, С.8-15.
7. Т.Ю. Базаров и др. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. Москва, 2014. №1, Серия 14, Психология. С.87-99.
8. Г.К. Селевко Современные образовательные технологии. М.: Народное образование, 1998. 256 с.
9. V.P. Ubaydullayeva, A. Mavlyanov. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” atamalarining oddiy so'zlar bilan izohlanishi // Respublika ko'p tarmoqli ilmiy sammit materiallari to'plami, “Ilmiy tadqiqotlar sammiti”. O'zbekiston milliy universiteti, 2022 y. 22 fevral, B. 531-535.
10. V.P. Ubaydullayeva. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi kompetensiyasining ahamiyati // Ilmiy-ommabop davriy jurnal, “Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari” Rrespublika onlayn konferensiyasi, “Ziyo scientific center” Ilmiy tadqiqotlar markazi, 2022 y. 31 may, 2022, -1, B.158-161

	www.research.uz		.		yakka
--	--	--	---	--	-----------------------